

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.X.Djalalova	
Texnologik sivilizatsiya va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning falsafiy asoslari.....	104
Sh.T.Abbosova	
Sun'iy intellekt va ijtimoiy barqarorlikning falsafiy tahlili	108
U.K.Mamayusupov	
Jamiyat rivojlanishida strategik rejalashtirishning ahamiyati	110

SIYOSAT

I.M.Arzimatova	
Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari	113
L.S.Yuldasheva	
Diniy an'analar va xalq tabobatining uzviy rivoji: qadimdan islom davrigacha bo'lgan ilmiy-falsafiy tahlil.....	119
B.N.Eshbekov	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida siyosiy kommunikatsiya transformatsiyasi	123
A.X.Borotov	
Xususiy mulkni himoya qilish: milliy amaliyot va xorijiy tajriba	127
J.M.Azamov	
Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va Konstitutsiyaviy qonunchilikning rivojlanish marra-lari.....	132
M.Kenjaye-va	
Yangi O'zbekiston sharoitida jamoat birlashmalarining tutgan o'rni	137
A.A.Ahrorqulov	
Notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni	141

TARIX

O.V.Mahmudov	
Musulmon Sharqi mutafakkirlari asarlarining Yevropaga tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlari	145
T.T.Safarov	
Farg'ona viloyatida rus qishloqlarining paydo bo'lishi tarixidan.....	154
B.X.Abdullayev	
Rahima Aminovanning xotin-qizlar ijtimoiylashuvidagi ilmiy izlanishlari.....	158
N.M.Ikromov, A.A.Fayziyev	
The exchange of tea and horses in trade relations between China and Central Asia	162
Z.Sh.Turg'unboyev	
Badriddin Al-Ayniy va uning Amir Temur haqida qarashlariga umumiy tavsif	166
G.X.Xasanboyeva	
Sovet hokimiyati yillari qishloq xo'jaligida sug'orish tizimining o'rni.....	171
A.Sharafiddinov	
XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg'ona viloyatida paxtachilik va paxta yakkaxokimligining vujudga kelishi	174

ILMIY AXBOROT

M.Y.Sultonov	
Tarixiy xotira va ma'naviy meros: Sharq mamlakatlari tajribasi.....	179



UO'K: 347.2:341.24(100+575)

XUSUSIY MULKNI HIMOYA QILISH: MILLIY AMALIYOT VA XORIJIY TAJRIBA**ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ОТЕЧЕСТВЕННАЯ ПРАКТИКА ЗАЩИТЫ ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ****FOREIGN EXPERIENCE AND NATIONAL PRACTICE IN PROTECTING PRIVATE PROPERTY****Borotov Alisher Xomidovich**

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, y.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida xususiy mulk huquqining shakllanishi va uning huquqiy asoslariga doir masala ilgari surilgan. Xususan, fuqarolarning xususiy mulkka bo'lgan huquqlarining vujudga kelishi, ularni himoya qilish usullari va shakllari, bekor bo'lish bilan bog'liq holatlar tahlil qilingan. Yakunda muayyan xulosalarga kelingan.

Аннотация

В статье представлен вопрос формирования права частной собственности и его правовых основ в годы независимости Республики Узбекистан. В частности, проанализированы дела, связанные с возникновением прав граждан на частную собственность, методами и формами их защиты, а также их отмены. В итоге были сделаны определенные выводы.

Abstract

The article presents the issue of the formation of private property rights and its legal foundations during the years of independence of the Republic of Uzbekistan. In particular, cases related to the emergence of citizens' rights private property, methods and forms of their protection, as well as their abolition were analyzed. As a result, certain conclusions were drawn.

Kalit so'zlar: Xususiy mulk, mulk daxlsizligi, islohot, ishonchli himoya qilish, insofli egallovchi, mulkiy zarar, ma'naviy zarar, xorijiy tajriba.

Ключевые слова: Частная собственность, неприкосновенность собственности, реформа, фидуциарная защита, добросовестный владелец, имущественный вред, моральный вред, зарубежный опыт.

Key words: Private property, integrity of property, reform, fiduciary protection, bona fide owner, property damage, moral damage, foreign experience.

KIRISH

Dunyoda xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, uni har tomonlama samarali amalga oshirish, huquqlarni kafolatlash va himoya qilishga alohida e'tibor berib kelinadi. Mulkdorlik maqomidan kelib chiqib, kuzatilayotgan huquqiy tadqiqot tendensiyalari mulkdorning himoya huquqini kafolatlash masalasini tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. The Heritage Foundation (xalqaro miqyosda xususiy mulkni himoya qilinishi bo'yicha statistikasini o'rganadi) ma'lumotlariga ko'ra, 2011-yilda 15 ball, 2020-yilda esa, eng yuqori ko'rsatkich – 59 ball bilan baholan [1]. So'nggi yillarda esa, ushbu ko'rsatkich birmuncha pasaygan va ohirgi 2024-yilda bu ko'rsatkich 33 ball bilan izohlangan.

Mazkur pasayish mamlakatda xususiy mulkni himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu bois, tadqiqotning maqsadi-O'zbekiston qonunchiligida xususiy mulk huquqlarini himoya qilish tizimini xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyoslab o'rganish hamda samarali takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda **qiyosiy-huquqiy, tahliliy va statistik usullar** qo'llanildi.

Yuqoridagi holatni quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin.

Yil	2011	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Ball	15	48	49	50	59	58	32	31	33

2024-yildagi eng so'nggi qiymat 33 ballni tashkil etadi, bu 2023-yildagi 31 balldan oshgan. Taqqoslash uchun, 180 mamlakat ma'lumotlariga asoslanib, dunyo o'rtacha ko'rsatkichi 54 ballni tashkil etadi. Tarixan O'zbekiston bo'yicha 1998-2024-yillardagi o'rtacha ko'rsatkich 30 ballni tashkil qiladi. Minimal qiymat 15 ballga 2011-yilda erishilgan bo'lsa, maksimal 59 ball 2020-yilda qayd etilgan.

Bundan ko'rinadiki, yurtimizda xususiy mulkni himoya qilish bilan bog'liq holatlar yil sayin pastga tushib borayotganiga guvoh bo'lamiz. Bunga bir qator obyektiv va subyektiv sabablar mavjud. Bugungi kunda dunyo miqyosida xususiy yuridik shaxslar va fuqarolarning xususiy mulkini himoya qilish, bunda davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan sodir etiladigan noqonuniy xatti-harakatlar, turli firibgarlik va reyderlik sxemalari orqali mulkdorning huquqlarini o'zlashtirishga qarshi samarali qonunchilik mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (RESULTS AND DISCUSSION)

O'zbekiston Respublikasida birinchi instansiya sudlari tomonidan 2021-2023-yillarda xususiy mulk obyekti bo'lgan er bilan bog'liq ko'rilgan ishlar statistikasi quydagi jadvalda keltirilgan (mazkur jadval O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining internetdagi sahifasidan olib tayyorlangan).

Sudlarning nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil	Jami
Fuqarolik sudlar	4681	10 377	10 826	25 884
Iqtisodiy sudlar	735	1580	2085	4400
Ma'muriy sudlar	3798	3965	3159	10 922
Jami	9214	15922	16 070	41 206

Ushbu jadvalda yurtimizda xususiy mulk bilan bog'liq bo'lgan nizolarni sudda ko'rishning yildan yilga ortib borayotganini ko'rishimiz va bu, fikrimizcha, qonunchiligimizda ayrim bo'shliqlar borligidan dalolat.

Xorijiy huquqiy tizimlarda mulk huquqi turli xil vositalar bilan himoya qilinadi: jinoyat huquqi, ma'muriy, fuqarolik huquqi va boshqalar. Biroq fuqarolik huquqi mulkdorga uning buzilgan huquqlarini tiklashni, uning huquqlariga turli xil tajovuzlarning salbiy mulkiy oqibatlarini bartaraf etishni ta'minlaydigan moddiy va huquqiy himoya usullarini taqdim etadi. Xorijiy davlatlar doktrinasida mulk huquqini himoya qilishning fuqarolik huquqi usullari majburiyat-huquqiy va ashyoviy-huquqiy turlariga bo'linadi.

Mulk huquqini himoya qilishning majburiyat-huquqiy usullari:

– shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun da'volar (shartnoma majburiyatini asl holida bajarishga majburlash orqali: mulkni ijaraga berish shartnomasi bekor qilinganda mulkni qaytarish va boshqalar);

– zararni qoplash to'g'risidagi da'volar (pul kompensatsiyasini undirish, biror ashyoni asl holida qaytarish).

Ashyoviy-huquqiy usullari to'g'ridan to'g'ri mulk huquqining turli xil buzilishlariga qarshi qaratilgan va bu huquqni umuman himoya qilishga yoki mulkdorning alohida vakolatlarini himoya qilishga qaratilgan. Roman-German huquqiy tizimi mamlakatlarida maxsus ashyoviy-huquqiy da'volar, Angliya-Amerika huquqi mamlakatlarida esa huquqbuzarliklar (torts) uchun maxsus da'volar va ba'zi maxsus ashyoviy-huquqiy da'volar qo'llaniladi.

Germaniyada bunday da'volar bo'yicha qoidalar Germaniya Grajdandik tuzuk (GGT)larida batafsil yozilgan; Fransiya garchi Fransiya Fuqarolik kodeksi (FFK) ularga nisbatan aniq qoidalar mavjud bo'lmasa-da, ushbu da'volar bo'yicha doktrinalar va sud amaliyoti ishlab chiqilgan.

Ashyoning egasi boshqa bironing noqonuniy egaligidan mol-mulkni undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atish huquqiga ega hisoblanadi. Vindikaçion da'vo bo'yicha javobgar qonuniy asosga (titulga) ega bo'lmagan ashyoga egalik qiluvchi shaxs, ya'ni noqonuniy ega hisoblanadi. Bunday holda, ko'char ashyoning egasi uning ega emasligi isbotlanmagunicha qonuniy ega hisoblanadi, degan

SIYOSAT

qonun bilan belgilangan prezumpsiya qo'llaniladi. GGT normalariga ko'ra, ko'char ashyoning egasi foydasiga aksi isbotlanmaguncha ashyoning qonuniy egasi deb taxmin qilinadi. FFK tegishli moddalarida ko'char ashyoga egalik qilish qonuniy asosga teng bo'lgan qoida belgilanadi. Shu munosabat bilan javobgar egalik qilish uchun asoslarning qonuniyligini isbotlash majburiyatidan ozod qilinadi va da'vogar egasiga javobgarining ashyoga egalik qilishining noqonuniyligini isbotlash majburiyati yuklanadi.

Umumiy qoidalaridan ayrim ham istisnolar mavjud. Shunday qilib, GGTning qoidalariga ko'ra, ega insofiy egallovchidan o'z irodasiga qarshi egalik qilgan har qanday narsalarni qaytarishni talab qilishga haqli. FFKning normalarida mulkdor tomonidan uning irodasisiz o'g'irlangan yoki mulk huquqi yo'qolgan taqdirda, u o'g'irlangan yoki yo'qolgan kundan boshlab uch yil ichida uni insofiy egallovchidan qaytarishni talab qilishi mumkin.

Har qanday holatda ham insofsiz egallovchidan ashyo talab qilib olinishi mumkin. Shu bilan birga, egasi nafaqat ashyoning o'zini, balki ashyoga egalik qilish paytida undan olingan mevalarni (daromadlarni) ham qaytarishni talab qilishga haqli. Ashyo qaytarib olingan insofiy va insofsiz ega uni saqlash bilan bog'liq xarajatlarni qoplash huquqiga ega. Germaniya qonunchiligida kompensatsiya egasi hosil va daromadlarga egalik qilgan paytdan boshlab, Fransiya qonunlarida esa butun egalik muddati uchun to'lanadi.

Agar boshqa shaxslar o'z egaligidan chiqmaydigan ashyodan foydalanishda unga to'siqlar yaratsa, egasi darhol da'vo arizasi bilan murojaat qilishi mumkin. U da'voda quyidagilarni talab qilishi mumkin: bunday qoidabuzarlikni tugatish, to'siqlarni olib tashlash va xuddi shu qoidabuzarlikning takrorlanishining oldini olish choralarini ko'rish.

Angliya va AQSh huquqida mulk huquqini himoya qilishning vindikasiya va negator da'vo kabi usullari mavjud, ammo Angliya-Amerika huquqida mulkni himoya qilish asosan huquqbuzarliklar (torts) bo'yicha umumiy da'volar asosida amalga oshiriladi. Ular birinchi navbatda mulkdorning da'vosi sifatida emas, balki egasining da'vosi sifatida ko'riladi va ashyoning o'zini qaytarish va pul kompensatsiyasini olish huquqini beradi.

Ko'chmas mulkka nisbatan mulk huquqini himoya qilish misol sifatida Angliyada reyestriga kiritilmagan ko'chmas mulkni noqonuniy ro'yxatdan o'tkazishga qarshi himoya institutini ko'rsatib o'tish mumkin. Ushbu himoya institutining mohiyati shundan iboratki, ro'yxatdan o'tmagan mulkka qiziqish bildirgan har qanday shaxs, ko'rsatilgan mulkka bo'lgan huquqni ro'yxatdan o'tkazishga urinish bo'lgan taqdirda, ushbu shaxsni xabardor qilish zarurligi to'g'risida ariza berish huquqiga ega.

Angliyada ro'yxatga olish tizimi, birinchi navbatda, ko'chmas mulk aylanmasi ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilishni e'lon qiladigan uchta asosiy prinsipga asoslanadi.

Quyidagi uchta prinsip ajralib turadi:

- oyna prinsipi (mirror principle), ya'ni ko'chmas mulk huquqlari reyestri davlatdagi ko'chmas mulk fondi bilan bog'liq haqiqiy vaziyatni o'z ichiga olishi va aks ettirishi lozim.

Ushbu prinsip davlat va ro'yxatga olish organlarining mulkdorlarning egalik huquqi mavjudligini tasdiqlovchi aniq isbotni talab qilish vazifasi sifatida e'tirof etiladi. Ushbu reyestrda ro'yxatdan o'tgan ko'chmas mulkka nisbatan cheklovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ifoda etadi va er uchastkasida chegaralarning joylashuvi to'g'risida nizo bo'lgan hollarda ushbu reyestr (Qirolik reyestri deb ataladi) kartografik xizmat (Ordnance Survey) bilan o'zaro aloqada bo'ladi;

- parda prinsipi (curtain principle), ushbu prinsip sotib oluvchi o'zini olmoqchi bo'lgan ko'chmas mol-mulk to'g'risida reyestrda ko'rsatilgan ma'lumotlarga to'liq ishonishi mumkinligini anglatadi. Ro'yxatdan o'tish paytida toza titulni olish uchun xaridordan faqat 1925-yildagi mulk to'g'risidagi qonun talablariga rioya qilish talab qilinadi, ya'ni u "parda" ortida, barcha ma'lumotlar uchun mas'ul bo'lgan ro'yxatga olish kitobi himoyasi ostida [2];

- zararni kafolatlangan qoplash prinsipi (indemnity principle), bu shaxsning reyestrda yo'l qo'yilgan xatoliklar tufayli ko'radigan moddiy zarardan himoyalanganligini, registratorning xatolaridan zarar ko'rgan shaxslarga zarar qoplanishini anglatadi. Misol uchun, agar reyestrda mol-mulkka nisbatan biron bir cheklovlar (masalan, ushbu mol-mulkning garovga qo'yilganligi yoki ijaraga berilganligi) kiritilmagan bo'lsa, unda oyna prinsipiga ko'ra, xaridor bu majburiyat bilan bog'liq emas, lekin shu bilan birga, huquqlari buzilgan shaxs bu holatda davlatdan kompensatsiya olishi lozim. Ushbu prinsipga etarlicha e'tibor qaratiladi: 2002-yildagi Yerni ro'yxatga olish to'g'risidagi qonun kompensatsiya muqarrarligini bevosita nazarda tutadi.

Bunday tizimning afzalligi shundaki, Yer kitobidagi yozuvlar qat'iy, ishonchli hisoblanadi va undagi ma'lumotlar shubhalanish uchun asos bermaydi. Bu rad etib bo'lmaydigan ma'lumotlarni anglatadi. Zero, huquqni yo'qotgan yoki mahrum qilingan shaxs ro'yxatdan o'tgan egani rad eta olmaydi, egasi firibgarlik yoki boshqa noqonuniy xatti-harakatlarda aniq ishtirok etgan hollar bundan mustasno [3].

Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasi ko'chmas mol-mulkka bo'lgan mulk huquqlarini himoya qilishning samarali namunalaridan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin [4].

Shuni ta'kidlash kerakki, bizning qonunchiligimiz hali ham ko'chmas mol-mulkka egalik huquqini himoya qilish usullarini takomillashtirish bosqichida va bizning fikrimizcha, sud amaliyotining bir xillashtirish, shuningdek, oliy sud qarorlari va umuman qonun hujjatlariga qat'iy rioya qilishni talab qiladi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ko'chmas mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini himoya qilish bo'yicha ba'zi qoidalarini qo'llash imkoniyati qonunchilikda ham mavjud. Masalan, ro'yxatga oluvchi organ tomonidan yo'l qo'yilgan xato oqibatida mulkdorga yo'qotishlar va moddiy zararni qoplash kafolati ro'yxatdan o'tkazuvchi organing ichki amaliyotda samaradorligi va javobgarligini, shuningdek, fuqarolarning ro'yxatdan o'tishga bo'lgan ishonchi va istagini oshiradi, chunki ro'yxatdan o'tish xatosi uchun belgilangan jarimadan qo'rqib ko'plab fuqarolar hozirgacha ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha murojaat qilishga shoshilmayaptilar. Shuningdek, ko'plab mulkdorlar o'zlarining ko'chmas mulkiga nisbatan hech qanday cheklovlar, buzilishlar yoki taqiqlar to'g'risida xabardor qilinmaydilar, bu ham mulkdorlarga o'z mulklariga nisbatan har qanday o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot berish bo'yicha xorij tajribasini joriy etish lozimligini ko'rsatadi.

Mulk huquqlarini himoya qilishning o'ziga xos standartlarini yaratish uchun yanada qulay sharoitlar mintaqaviy darajada, ayniqsa Yevropada mavjud edi. Ikkinchi Jahon urushidan keyin G'arbiy Yevropa mamlakatlarida integratsiya jarayonlari chuqurlashdi va o'ziga xos gumanitar va iqtisodiy makon yaratishga kirishildi. Gumanitar masalalar va yagona bozor masalalarida huquqiy tartibga solishni rivojlantirish va ta'minlash funksiyalariga ega maxsus xalqaro tashkilotlar tashkil etildi [5].

Gumanitar hamkorlik uchun mas'ul bo'lgan Markaziy mintaqaviy xalqaro tashkilot bo'lgan – Yevropa Kengashiga xususiy mulk huquqlari institutini ifodalovchi fundamental qoidalar darajasida yagona rejimni shakllantirish vazifasi yuklatilgan [6].

1950-yilgi Yevropa Konvensiyasi. Unda 47 davlat ishtirok etdi [7]. Ushbu Konvensiya Yevropada inson huquqlari masalalari bo'yicha asosiy xalqaro shartnomaga aylandi. Konvensiyaning maqsadi, aslida, ma'lum miqdordagi inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilishning huquqiy mexanizmini yaratish va o'rnatishdir, u e'lon qilingach keyinchalik qo'shimcha protokollar bilan to'ldiriladi va birinchisi [8] va ulardan eng muhimi – mulk huquqlarini himoya qilishga bag'ishlangan edi.

Yevropa Konvensiyasining muqaddimasidan ko'rinib turibdiki, ushbu asosiy huquq va erkinliklar dunyoda adolat va tinchlikning asosini tashkil etadi va uni saqlash, xususan, bir tomondan, chinakam demokratik siyosiy rejimga asoslanadi, ikkinchi tomondan, inson huquqlariga umumiy konsepsiyani belgilaydi va hurmatni ifodalaydi [9].

XULOSA

Xususiy mulk huquqlarini himoya qilishning xorijiy tajribasi O'zbekiston uchun quyidagi yo'nalishlarda foydali bo'lishi mumkin:

1. **Davlat javobgarligini kuchaytirish** – ro'yxatga olishdagi xatolar uchun kompensatsiya mexanizmini joriy etish;
2. **Sud mustaqilligini ta'minlash** – adolatli, birxil va shaffof sud amaliyotini yo'lga qo'yish;
3. **Mulkdorlarni xabardor qilish tizimini takomillashtirish** – elektron reyestrlar va ochiq ma'lumotlar bazasini kengaytirish;
4. **Xalqaro standartlarga muvofiqlikni oshirish** – Yevropa Konvensiyasi tajribasiga mos milliy mexanizmlarni joriy etish.

Shunday qilib, O'zbekiston xususiy mulkni himoya qilish tizimini xalqaro ilg'or tajriba asosida yangilash orqali mulkdorlar ishonchini oshirishi va investitsion muhitni yanada yaxshilashi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy mamlakatlarda xususiy mulk huquqini himoya qilish kafolatlari tizimida mustaqil sud tizimining mavjudligi hamda sudlarga bo'lgan ishonchning yuqoriligi alohida o'rin tutadi. Zero, mustaqil sudlarsiz qonunchilikda belgilab qo'yilgan adolatli va har tomonlama maqbul normalarni hayotga tatbiq etish mumkin emas. Shunday ekan, xususiy mulk huquqini

SIYOSAT

himoya qilishning qonunchilik tizimini takomillashtirish bilan birga, sudlar tomonidan ushbu normalarni to'g'ri qo'llash va talqin etishga ham alohida e'tibor qaratish o'rinlidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. https://theglobaleconomy.com/Uzbekistan/herit_property_rights/.
2. Некрасова М.А. Регистрация прав на недвижимое имущество в Англии. Электронная передача прав // Вестник МГИМО-Университета, 2010. – № 4. – С. 108.
3. Губарева А.В., Латыев А.Н. Недвижимость за рубежом. Правовые вопросы / Учебное пособие, 2014. – С. 74.
4. Изосимов А.С. Особенности регистрации строений на земельном участке // Журнал «Проблемы науки». 2018. – № 9 (33). – С. 82.
5. Cțitor Natalia, Esența dreptului de proprietate ca categorie juridică și economică/studiu comparativ, în cadrul Conferinței internaționale științifico-practică, cu genericul Reafirmarea drepturilor și libertăților fundamentale la 60 ani ai Declarației, Universale a Drepturilor Omului, publicat în ediția 2009 a Universității de studii europene din Moldova, Chișinău, 370 pagini. – P. 628
6. Топорнин Б. Н. Европейское право: Учебник. – М., Юристъ, 1998. – 19 с.
7. CEDO în 50 întrebări, http://www.echr.coe.int/Documents/50_Questions_ROM.pdf, vizitat la 24.10.2014.
8. Первый дополнительный Протокол к Конвенции, Париж, 20.III.1952, источник: Соглашения, договоры, конвенции Конвенция от 04.11.50 о защите прав человека и основных свобод // Международные договоры 1/341, 1998 г.
9. Конвенция о защите прав человека и основных свобод от 04.11.1950 г., опубликованная в официальном издании «Международные договоры». 1998. Т.1. – С. 341.